

O'zbek Va Qoraqalpoq Tillarida Shart Bog'lovchilar

Aytbayeva Roza¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillarida bog'lovchilar, xususan shart bog'lovchilar qiyoslanib, ularning umumiy va o'ziga xos tomonlari, funksional-semantik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: bog'lovchi, shart bog'lovchi, bosh gap, to'siqsiz ergash gap.

Shart bog'lovchilarga to'siqsizlik atamasi ham ko'p hollarda qo'shilib shart va to'siqsizlik bog'lovchilari deb yuritiladi. Ular qatoriga **agar, agarchi, modomiki, basharti, garchi, garchand mabodo** kabi bog'lovchilar kiritiladi.²

Bunday bog'lovchilar biror voqea-hodisa yuzaga chiqishi uchun zarur shart vosita bo'lgan ergash gapni yoki asosiy fikriga zid bo'lib, uning bajarilishiga to'siq bo'la olmaydigan ergash gap bilan bosh gapni bog'lash uchun qo'llaniladi.

Bunday gaplarda shar yoki to'siqsizlik, bosh gapda esa shart bajarilgandan keyin yoki to'siq bo'la olmagach yuzaga keladigan natija ifoda etiladi.³

Koinot buyukdir, erimiz **garchand** uzilgan kichkina yulduz poradir (G'. G'ulom).

Demak, shart bog'lovchilar shar va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatiga shartni, shu bilan birga tasiqsizlik ma'nolarini anglatadi: **Agarda** unung yonida usta Olim bo'lmaganida edi, ehtimol u qay vaqtlargacha serrayib qolar edi (A. Qodiriy). Jamolovning singlisini har ko'rganda **garchi** dardini yashirishga tirishsa ham, biron xushxabar umidida, o'smoqchilab so'raydi (Oybek).

Shart bog'lovchilar o'rnida, shu bog'lovchilar bajargan vazifani bajarib, bordi-yu so'zi ham kelishi mumkin: Bordiyu hayotda uchratolmasam, o'ylab hayolimda yaratardim, kel! (A. Muxtor).⁴

Shart bog'lovchilar o'zbek tilida shart ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiladi. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatining qanday shart bilan bajarilishini bildiradi.⁵ Bunday gaplarda shart bog'lovchilar ergash gap tarkibida qo'llaniladi: **Agar** siz menga ishini o'rgatib tursangiz, men durust ishlay olaman (S. Ayniy).

Shuningdek, shart bog'lovchilar zidlikni ifodalab to'siqsizlik ergash gapli qo'shma gaplarni ham hosil qiladi. Gap mazmunidagi zidlikni ta'kidlash uchun ko'pincha to'siqsiz ergash gap boshida **garchi** bog'lovchisi qo'llaniladi: **Garchi** quyosh hamma erga barobar nur sochsa ham, bog'da gul, cho'lda yantoq ko'karadi (Navoiy).

To'siqsiz ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatadi. U bosh gap bilan birga to'siqsiz ergash gapli qoshma gap deyiladi.⁶

Shárt dánekerleri. Qoraqalpoq tilidagi bog'lovchining bu turiga **eger, eger de, dánekerleri** ya'ni bog'lovchilari kiradi.⁷

Ushbu bog'lovchilar **shárt baǵmıńqılı qospa gáp**, ya'ni shart ergash gapli qo'shma gaplar hosil qilishda ishtirok etadi.

Shart bog'lovchilari shart ergash gap tarkibidagi ergash gap bilan bosh gapni ma'lum bir shart asosida bog'laydi.⁸ Ko'pincha ular ergash gap boshida kelib, o'z faoliyatini (bog'lovchilik vazifasini) amalga oshiradi: **Eger** Mirjıq uyinde bolmasa, miymandı biziń awılǵa aparayıq. **Eger de** áwelgi ushewide gózlegen adamǵa tiymese, ayıpkır qutıladı.(T.Qayıpbergenov). **Eger** jawın tınbaǵanda, sol jerde neshe saǵat bolsada turıwǵa qayıł bolar edim (Á.Qarlıbaev).

Ayrim hollarda shart ergash gapli qo'shma gaplarda so'zlovchining diqqati shartdan kelib chiqadigan natijaga qaratilgan bo'ladi.

Baslıqtı hámmemiz de quwatlawimiz kerek, **eger de** ol tiwri joldan adaspasa (J. Saparov). Orazǵalıy menen ekewimizdıń sozimiz ele de dawam ete beretuǵın turi bar edi, **eger de** Ayparshanıń úyininin ala kushigi álle nege shabalanıp úrmegende. (G. Izimbetov).⁹

Bunday paytda bosh gap avval, shart ergash gap esa keyin keladi. Bu holatda bog'lovchilik vazifasi yana shart bog'lovchi zimmasiga yuklanadi.¹⁰

¹ Xo'jayli kasb-hunar maktabi o'zbek tili fani o'qituvchisi

² O'zbek milliy entsiklopediyasi., Toshkent., 2001., 200-bet.

³ Tursunov U va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent., 1965.

⁴ O'zbek til grammatikasi. Sintaksis. Toshkent., 1965., 573-bet.

⁵ Mengliev B., Xoliyorov O O'zbek tilidan universal qo'llanma., Toshkent., "Akademnashr.", 2011., 276-bet.

⁶ O'sha asar., 276-bet. bet

⁷ Bekbergenov ha'm t.b. Ha'zirgi qaraqalpaq tili. No'kis. "Qaraqalpaqstan" 1974., 264-bet.

⁸ Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tilinin' grammatikasi Nokis., 1994., 384-bet

⁹ Qirg'iz adabiy tilinin' grammatikasi/ I-bolum.Fonetika. Jana Morfologiya "Ilim" Frunze., 1980., 506-bet.

¹⁰ Mengliev B., Xoliyorov O. Ko'rsatilgan asar., 224-bet.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog‘lovchilarning gapdagi vazifasi va tuzilishi jihatdan turlarga bo‘linishi, turlarga kiruvchi bog‘lovchilarning esa qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanliklari bilan yaqindan tanishib chiqdik.

Shu bilan bir qatorda o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog‘lovchilar qanday o‘xshash va farqli jihatlariga ega ekanliklarini misollar tahlili natijasida bilishga muvaffaq bo‘ldik.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog‘lovchilar shakliy jihatdan farqlansada, mazmuniy jihatdan bir-biriga o‘xshash ekanligini qiyosiy tahlil mobaynida namayon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek milliy entsiklopediyasi., Toshkent., 2001., 200-bet. Tursunov U va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent., 1965.
2. O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis. Toshkent., 1965., 573-bet.
3. Mengliev B., Xoliyorov O O‘zbek tilidan universal qo‘llanma., Toshkent., “Akademnashr.”, 2011., 276-bet.
4. O‘sha asar, , 276-bet. Bet Bekbergenov ha‘m t.b. Ha‘zirgi qaraqalpaq tili. No‘kis. ”Qaraqalpaqstan” 1974., 264-bet.
5. Ha‘zirgi qaraqalpaq a‘debiy tilinin‘ grammatikasi Nokis., 1994., 384-bet
6. Qirg‘iz adabiy tilinin‘ grammatikasi/ I-bolum. Fonetika. Jana Morfologiya “Ilim” Frunze., 1980., 506-bet.
7. Mengliev B., Xoliyorov O. Ko‘rsatilgan asar., 224-bet.